



KAMBAG'ALLIK DARAJASINI QISQARTIRISH BO'YICHA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI

Maxmudova Surayyoxon Madamin qizi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi

Biznes va tadbirkorlik oliy maktabining tinglovchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14613916>

Annotasiya

Ushbu maqolada kambag'allik tushunchasi, kambag'allik chegarasi, kambag'allikni vujudga kelish sabablari, O'zbekistonda kambag'allik darajasining hozirgi holati tahlili, kambag'allik darajasini qisqartirishda xorijiy mamlakatlar tajribasi, O'zbekistonda kambag'allik darajasini yanda qisqartirishga qaratilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar yoritilgan.

Kalit so'z: kambag'allik, kam ta'minlanganlik, kambag'allik chegarasi, kambag'allikni qisqartirish.

O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning asosiy mezoni va instrumentiga aylanib bormoqda. Hususan bu borada amalga oshirilayotgan ishlar natijasida 2022 yili mamlakatimizda kambag'allik darajasi 17 foizdan 14 foizga tushgani O'zbekiston Respublika Prezident Sh.M.Mirziyoyevning "Kambag'allikni qisqartirish bo'yicha ilg'or tajribalarni hayotga tatbiq etish" II Xalqaro forumi ishtirokchilariga yo'llagan murojaatida ma'lum qilindi. Shuningdek, davlat rahbarining aholi bandligini ta'minlash borasidagi ishlar natijadorligi yuzasidan o'tkazgan yig'ilishida aholi bandligini oshirish orqali kambag'allikni qisqartirilganligining asosiy sababi sifatida hokim yordamchilari 1 mln nafar aholini kasb-hunarga o'qitib, tadbirkorligini boshlashga ko'maklashgani, daromadli ish bilan band qilgani, shuningdek, 2021-2022 yillarda 200 mingga yaqin tadbirkorlik subyekti tashkil qilinganligi, 10 mingta korxona faoliyati kengaytirilganligi hamda 11 mingta korxona quvvati tiklanganligi keltirilgan¹.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi "“O'zbekiston - 2030” strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-sonli farmoni bilan tasdiqlangan strategiyaning "Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish" deb nomlangan birinchi bo'limida mamlakatda kambag'allik darajasini qisqartirish maqsad sifatida belgilangan va uning 2030 yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko'rsatkichlari sifatida quyidagilar keltirilgan²: 2026 yilga qadar





kambag'allikni 2022 yilga nisbatan 2 barobarga, 2030 yilga qadar esa keskin qisqartirish; kambag'allikka tushish xavfi mavjud 4,5 mln aholi daromadini oshirish.


"O'zbekiston - 2030" strategiyasi "2026 yilga qadab kambag'allikni 2022 yilga nisbatan 2 barobarga, 2030 yilga qadar esa keskin qisqartirish; kambag'allikka tushish xavfi mavjud 4,5 million aholi daromadini oshirish; ijtimoiy sheriklik asosida 500 ming malakali mutaxassis tayyorlash"³ kabi bir qator vazifalar belgilab berilgan.

2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 29-maqsadi "Mamlakatda yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshipish va shu orqali 2026 yil yakuniga qadar kambag'allikni kamida 2 baravariga qisqartirish"⁴ deb nomlanib, shu maqsadga erishishda asosiy vazifalar belgilab berilgan.

2023 yil 15 mayda Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida kambag'allikni qisqartirish, aholi bandligini ta'minlash va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha videosektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. "Davlatimiz rahbari kambag'allikni qisqartirish milliy siyosat darajasiga olib chiqilganini ta'kidladi. Natijada o'tgan yilning o'zida kambag'allik darajasi 17 foizdan 14 foizga tushgani, bunda hokim yordamchilari 1 million nafar aholini kasb-hunarga o'qitib, tadbirkorligini boshlashga ko'maklashgani, daromadli ish bilan band qilgani muhim omil bo'lgani qayd etildi. Shu davrda 200 mingga yaqin tadbirkorlik sub'ekti tashkil qilindi, 10 mingta korxona faoliyati kengaytirildi, 11 mingta korxona quvvati tiklandi. Bu ishlarni 2023 yilda davom ettirish, bandlikni ta'minlash bo'yicha barcha tarmoq va hudud rahbarlariga aniq topshiriqlar berilgan. Jumladan, 2023 yilda 5 million nafar aholi bandligini ta'minlash, shu jumladan 2 millionta doimiy ish o'rinlarini yaratish zarurligi ko'rsatib o'tildi."⁵

O'zbekistonda kambag'allikni qicqaptirishning iqtisodiy yo'nalishlari bilan bog'liq masalalarni tahlil qilishda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Mirziyoyev ma'ruzalari bilan bir qatorda mamlakatimiz va xorijiy iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari muhim nazariy-uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Amartya Sen o'zining "Ochlik siyosiy iqtisodiyoti" asarida "kambag'allik tovarlar miqdori (moddiy ne'matlar) bilan bog'liq emasligini ko'rsatadi, lekin odamlarning bu moddiy ne'matlarni olish uchun ijtimoiy shartlangan imkoniyatlari bilan belgilanadi" deb ta'kidlagan⁶.





Rossiyalik iqtisodchi olimlar Natalya Yevgenyevna Tixonova va Mixail Konstantinovich Gorshkovlar Rossiyada aholining kambag'allik sabablari bu icha tadqiqotlar olib borishgan⁷.

Jeffri Saks o'zining "Kambag'allikning intihosi" deb nomlagan kitobida jamiyatning kambag'allik changalidan qutulishiga imkon beruvchi kapitalning 6 ta turini ajratib ko'rsatgan⁸.


O'zbekistonlik proffessorlar M.Q.Pardayev, O.M.Pardayevlar kambag'allikni turlicha toifalarga ajratishgan. Xususan, Muhammedov "Kambag'al aholi deganda ikki toifani nazarda tutish mumkin, birinchi toifa kambag'al aholi – bu o'z hayotini tuzatishni istamaydigan, istasa-da, bunga harakat qilishga dangasalik qiladiganlar. Ikkinchi toifasi esa ma'lum sabablar tufayli shunday holga kelib qolgan, ishlashni istaydigan, ammo ba'zi sabablar bilan bunga imkon topolmagan insonlardir" deb ta'kidlaydi⁹.

Professor Xasanov "Kambag'allikka insonlardagi yalqovlik, dangasalik xususiyatlari ham yuqori ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Shu sababli kambag'allarni yalqovlik, dangasalikdan forig' etish talab qilinadi. Muhimi, kambag'allarga ishlab pul topib, to'q yashashiga sharoit va imkoniyat yaratish kerak" deb ta'kidlaydi¹⁰.

Mamlakatimizda yaqin yillargacha bo'lgan davrda iqtisodiy atamashunoslikda "kambag'allik" degan tushuncha qo'llanilmas edi. Xuddi O'zbekistonda umuman kambag'al aholi yo'qday. Uning o'rniga uzoq yillardan beri "kam ta'minlanganlik" degan tushuncha qo'llanilib kelindi. Mamlakatimizda amalga oshiralayotgan samarali ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar natijasida kam ta'minlangan aholi ulushi yildan yilga kamayib bormoqda. Xususan, uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan 2001 yilda O'zbekistonda jami aholi tarkibida kam ta'minlanganlarning ulushi 27,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2020 yilda 11, 5 foizni tashkil etdi. Ya'ni, 2,4 barobarga kamaygan (1-rasm).

1-rasmda keltirilgan raqamlarni 2001-yildan 2020-yilgacha Jahon Banki tavsiyasiga ko'ra kam ta'minlanganlik darajasi ko'rsatkichi kunlik 2100 kkal miqdoridan kelib chiqib hisoblangan, 2021-yil uchun Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi 544-sonli qaroriga asosan, aholi daromadlarini MIX miqdoriga nisbatan solishtirish orqali hisoblangan.


2021 yildan boshlab kam ta'minlangan aholi ulushi o'rniga kambag'allik





darajasi qo'llanila boshladi va 2021 yilda kambag'allik darajasi 17,0 foizni tashkil etgan.


“O'zbekiston – 2030” strategiyasi”ning “Barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash” deb nomlanib, unda “2030 yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va “daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar” qatoriga kirish. Yalpi ichki mahsulot hajmini 160 milliard dollarga va aholi jon boshiga daromadlarni 4 ming dollarga yetkazish” vazifasi belgilab berilgan.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasida kam ta'minlangan aholi ulushi, foiz¹¹

Kambag'allik chegarasi nima va u qanday aniqlanadi degan savol tug'iladi. "Birlashgan Millatlar Tashkilotining kambag'allik chegarasini asosiy tovar va xizmatlar (oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechak, turar-joy haqini to'lash, suv bilan ta'minlash, elektr energiyasi, maktab ta'limi, tibbiy xizmat) uchun zarur bo'lgan daromadlar sifatida belgilaydi. Kambag'allik darajasi nisbiy tushuncha sanaladi va muayyan mamlakatdagi umumiy farovonlik darajasiga bog'liq. Kambag'allik mutlaq va nisbiy kabi turlarga bo'linadi. Mutlaq kambag'allikda kun kechiruvchi odamlar biologik tirik qolishni ta'minlaydigan minimal ehtiyojlarnigina qondirishlari mumkin"¹².

Hukumat mahalliy organlari aholining kam ta'minlangan qatlamlarini aniqlash, ijtimoiy himoya sohasidagi vazifalarni aniqlash maqsadida kambag'allik chegarasini belgilaydi. Bunda turli mezonlardan foydalaniladi, boy mamlakatlarda qashshoqlik chegarasi, kambag'al mamlakatlarga qaraganda yuqoriroq.





Kambag'allik chegarasi deganda daromadning shunday darajasi tushuniladiki, undan pastda odam oxirigacha hamma narsadan mahrum bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, uning daromadi yashash darajasidan ortmaydi. Hozirgi kunda Jahon bankining ma'lumotlariga ko'ra, dunyoda 736 million kishi o'ta kambag'allik sharoitida kun kechirmoqda.

1990 yilda Jahon banki ekspertlari kambag'al davlatlarda qo'llanadigan standartlardan foydalanib, dunyodagi kambag'al aholi sonini o'lchashni taklif qilishgandi. 15 ta davlatdagi kambag'allikning milliy darajasini o'rganib, xarid qobiliyati asosida valyuta kurslarini qo'llagan holda (xarid qobiliyati; butun dunyodagi ana shu narxlar asosida hisoblanadi) qayta hisoblashdi.


Bundan tashqari, kambag'allik daromadlar darajasi bo'yicha kommunal xizmatlar (suv, elektr energiyasi), sog'liqni saqlash yoki ta'lim olish imkoniyatini aks ettirmagani uchun ko'p o'lchamli kambag'allik ko'rsatkichi kiritildi.

1-jadval

Dunyodagi eng kambag'al 10 ta mamlakatlar (2024 yil)¹³

No	Mamlakatlar	Aholi jon boshiga YaIM
1.	Burundi	950,90 dollar
2.	Markaziy Afrika Respublikasi	1130 dollar
3.	Somali	1611,30 dollar
4.	Mozambik	1657,10 dollar
5.	Kongo DR	1670,80 dollar
6.	Niger	1817,30 dollar
7.	Liberiya	1819 dollar
8.	Syerra-Leone	1846,70 dollar
9.	Malavi	1867,70 dollar
10.	Madagaskar	1875,10 dollar

Burundi dunyodagi eng kambag'al mamlakat bo'lib, Atlas usulidan foydalangan holda aholi jon boshiga YAIM 230 AQSH dollarini va PPP (xarid qobiliyati pariteti - XQP) 950,90 dollarni tashkil qiladi. Aksincha, Bermud orollari GNI (Atlas usuli) bo'yicha dunyodagi eng boy davlat bo'lib, uning qiymati 134 640 dollarni tashkil etadi. Shunday ekan, dunyoning eng boy va kambag'al mamlakatlari o'rtasidagi YAMD (Atlas usuli)dagi farq 116 380 dollarni tashkil qiladi. PPP bo'yicha Lyuksemburg dunyodagi eng boy davlat bo'lib, PPP 143,341,50 dollarni tashkil etadi. Shu sababli, eng boy va eng kambag'al mamlakatlar o'rtasidagi PPP bo'yicha farq 101 670 dollarni tashkil qiladi. Barcha mamlakatlarda o'rtacha Atlas usuli YAIM 134,640 dollarni tashkil etadi, ya'ni





o'rtacha mamlakat Burundidan 58 marta boyroqdir. O'rtacha YAMD PPP 28,284 dollarni tashkil etadi, bu o'rtacha mamlakatni Burundidan 26 baravar boy qiladi.

Yalpi milliy daromad (YaMD). Yalpi milliy daromad - bu mamlakat aholisi va korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan pul mablag'larining umumiy miqdori. Odatda u ikki yo'ldan birida ifodalanadi. Birinchisi, har bir davlat valyutasini solishtirish uchun Atlas usuli deb ataladigan usul yordamida hisoblangan AQSh dollarida. Ikkinchisi, ma'lum bir yildagi AQSh dollari qiymatiga bog'langan faraziy valyuta bo'lgan "sotib olish qobiliyati pariteti (XPP) xalqaro dollarlarida". Jahon banki tizimiga ko'ra, 2022-yil holatiga ko'ra, YaIM (joriy AQSh dollariga moslashtirilgan) 1135 dollardan kam bo'lgan davlatlar past daromadli davlatlar hisoblanadi.

Jahon bankining to'rt darajali reyting tizimida dunyoning eng qashshoq mamlakatlari past daromadli iqtisodlar qatoriga kiritilgan. Bu reyting har bir mamlakatning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi milliy daromadi (yalpi milliy daromad) asosida tuziladi, bu mamlakat umumiy daromadini aholi soniga bo'lish ko'rsatkichidir. YaMD aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotga (YaIM) o'xshaydi. YaIM - bu iqtisodiyotdagi barcha rezident ishlab chiqaruvchilar tomonidan qo'shilgan yalpi qo'shilgan qiymat va har qanday mahsulot soliqlari, har qanday subsidiyalarni olib tashlagan holda, mamlakat aholisiga bo'lingan yig'indisidir. YaIM ham, YaIM ham ma'lum bir mamlakatda ishlab chiqarilgan barcha tovarlar va xizmatlarning dollar qiymatini o'lchaydi, ammo YaIM xalqaro manbalar (masalan, xorijiy investitsiyalar yoki ko'chmas mulk egalari) orqali olingan daromadlarni ham o'z ichiga oladi. Shu sababli, YaMD mamlakatning iqtisodiy salomatligining biroz aniqroq o'lchovi hisoblanadi va shuning uchun ushbu maqolada dunyodagi eng qashshoq mamlakatlarni aniqlash uchun foydalaniladi.

Dunyodagi eng qashshoq 5 ta davlatlari:

1. Burundi. Burundi dunyodagi eng qashshoq davlatdir. U 13,2 milliondan ortiq aholiga ega va 2,87% ga o'sib bormoqda, bu uni dunyodagi eng tez rivojlanayotgan mamlakatlardan biriga aylantiradi; ammo, Burundi aholining haddan tashqari ko'payishi xavfiga duch kelmoqda. Mamlakatning eng yirik sanoati qishloq xo'jaligi bo'lib, yalpi ichki mahsulotning 32,9% ni tashkil qiladi va aholining 70% dan ortig'ini ish bilan ta'minlaydi. Shunga qaramay, uning aholisining taxminan 40 foizi etarli darajada oziq-ovqatga ega emas va aholining haddan tashqari ko'payishi buni yanada kuchaytirishi mumkin. Burundi, shuningdek, cheklangan ta'lim, keng tarqalgan korruptsiya va urush bilan kurashmoqda.





2. Markaziy Afrika Respublikasi. Markaziy Afrika Respublikasining YaMD PPP 980 dollarni tashkil etadi, bu uni ikkinchi eng qashshoq mamlakatga aylantiradi. Aholisi tez o'sib borayotgan, ammo iqtisodiyoti zaif bo'lgan yana bir davlat - CAR. Ko'pgina fuqarolar o'z oilalariga g'amxo'rlik qilish uchun dehqonlardir va qishloq xo'jaligi mamlakat yalpi ichki mahsulotining yarmidan ko'prog'ini tashkil qiladi. Yog'och va olmos mamlakat foydasining ko'p qismini tashkil etsa-da, uning fuqarolari pulni ko'rmaydilar.

3. Janubiy Sudan. Janubiy Sudan dunyodagi uchinchi eng qashshoq davlat bo'lib, YaIM PPP 1040 dollarni tashkil etadi. Janubiy Sudan atigi .385 ball bilan dunyodagi eng past Inson taraqqiyoti indeksiga (HDI) ega. Inson taraqqiyoti indeksi inson rivojlanishidagi o'rtacha yutuqning o'lchovidir, jumladan, umr ko'rish davomiyligi, ta'lim, daromad va boshqalar kabi ko'rsatkichlar. Mamlakatda onalar o'limi bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda turadi, aksariyat uylarda elektr yoki suv yo'q, asfaltlangan yo'llar kam uchraydi.

4. Kongo Demokratik Respublikasi. Kongo Demokratik Respublikasi 1110 AQSh dollari miqdoridagi YaIM PPPga ega bo'lib, uni eng kambag'al to'rtinchi davlatga aylantiradi. Bu mamlakat dunyodagi eng tez o'sayotgan davlatlardan biri bo'lib, hozirgi 102 million aholiga nisbatan yillik aholi soni 3,26 foizga oshadi. Aholining tez o'sishi siyosiy beqarorlik va mojarolarga duch kelishidan tashqari, to'yib ovqatlanmaslik, zamonaviy sog'liqni saqlash va yomon ta'limning yuqori sur'atlarini kuchaytiradi. Kongo Demokratik Respublikasida qashshoqlik darajasi 63,9% ni tashkil qiladi.

5. Somali. Somali dunyodagi eng qashshoq beshinchi mamlakat bo'lib, YaIM PPP 1,240 dollarni tashkil qiladi. Yuqorida aytib o'tilganlar singari, Somalining aholisi tez sur'atlar bilan 3,32% ga o'sib bormoqda, tug'ilish darajasi har bir ayolga 6 tadan ortiq tug'ilishni tashkil qiladi. Bu mamlakatdagi sog'liqni saqlashning yomon ahvoriga va beqarorlikka ta'sir qiladi. Somalida yomon boshqaruv, ichki mojaro, iqtisodiy tanazzul va qashshoqlik kabi ko'plab boshqa muammolarga duch kelmoqda. Somaliliklarning qariyb 70 foizi qashshoqlik chegarasida yashaydi.

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 736 million kishi (aholining 10 foizi) o'ta qashshoqlik sharoitida (kuniga 1,9 dollardan kam kiringa ega), dunyo aholisining deyarli yarmi – 3,4 mlrd kishi – kuniga 5,5 dollardan kam tushumga ega. Qashshoqlik darajasi eng yuqori qit'a Afrika, sayyoradagi eng qashshoq mamlakatlar – Kongo demokratik respublikasi (o'ta qashshoqlik darajasi – 77,1 foiz) va Madagaskar (77,6 foiz).

Kambag'allik haqida so'z yuritganda, u bitta inson uchun tegishli bo'lgan







muammo emasligini anglab yetishimiz lozim. Kambag'allik jamiyat va iqtisodiyotda bir qator salbiy jarayonlarni yuzaga keltiradi. Kambag'allik bir qator obyektiv va subyektiv sabablar tufayli tug'ilishning ko'payishiga sabab bo'ladi. Kambag'allar yetarlicha ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lmaganliklari bois, malaka va kasbiy ko'nikmalari past xodimlar safini to'ldiradilar. Jamiyat uchun zarur bo'lgan kasb egalari, xususan o'qituvchi va shifokorlar yuqori daromadga ega bo'lish maqsadida o'z ish joylarini tashlab boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanishga majbur bo'ladilar. Kambag'allik jinoyatchilikning o'sishiga olib keladi, chunki tirikchilik qilish uchun insonlar daromad topishning noqonuniy yo'llaridan ham foydalanishga majbur bo'ladilar. Kambag'allik jamiyatda daromadlarning keskin tabaqalanishiga va ijtimoiy ziddiyatlarning chuqur ildiz otishiga sabab bo'ladi.

Amerikalik iqtisodchi Jeffri Saks o'zining "Kambag'allikning intihosi" deb nomlagan kitobida jamiyatning kambag'allik changalidan qutulishiga imkon beruvchi kapitalning 6 ta turini ajratib ko'rsatgan (2-rasm).

Bugungi kunda dunyoda qashshoqlik va kambag'allikka barham berish hamda barqaror rivojlanishni ta'minlash muammolari markaziy o'rinda turibdi. Soni o'sib borayotgan aholi uchun mos, to'yimli va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlaridan foydalana olishni ta'minlash deyarli barcha xalqlar to'qnash kelayotgan eng murakkab muammolardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda dunyodagi rivojlanayotgan mamlakatlarida 30 milliondan ortiq bolalar nochorlikda kun kechirmoqda¹⁴.





2-rasm. Jamiyatning kambag'allik changalidan qutulishiga imkon beruvchi kapitalning turlari¹⁵


Jahonning barcha rivojlangan mamlakatlarida kambag'allikni qisqartirish, aholining turmush darajasi, hayot tarzini oshirish har bir davlatning ijtimoiy – siyosiy yo'nalishlarida asosiy o'rinni egallaydi. Bu borada xalqaro tashkilotlar kambag'allikni qisqartirish, insonlar yashash darajasini yana-da yaxshilash, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yuzasidan amalga oshirilgan ishlar va istiqboldagi rejalarni bajarishga alohida e'tibor qaratilgani bilan ahamiyatlidir. BMT tashabbusi bilan ishlab chiqilgan 2030 yilgacha Barqaror rivojlanish maqsadlari bizning mamlakatimizda ham amalga oshirishini o'z zimmasiga olganligini ta'kidlash lozim. Ushbu maqsadlarga erishish, shubhasiz, iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi, bu esa, o'z navbatida, mamlakatdagi kambag'allik darajasini bosqichma-bosqich kamaytirishga olib keladi. Bu borada Xitoy davlatlarning tajribasini o'rganish maqsadga muvofiq.

Kambag'allarga zarar yetkazmasdan, ichki daromadni safarbar qilishga intiling. Ko'chmas mulk va uglerod solig'i eng kambag'allarga zarar yetkazmasdan daromadlarni oshirishga yordam beradi. Jismoniy shaxslar va korporatsiyalar daromadlaridan olinadigan soliqlar bazasini kengaytirish orqali ham xuddi shunday natijaga erishish mumkin. Agar sotish va aksiz solig'ini oshirish zarur bo'lsa, hukumatlar iqtisodiyotdagi buzilishlarni va taqsimlashning salbiy ta'sirini minimallashtirishi va soliqlarning eng zaif oilalarga ta'sirini qoplash uchun maqsadli pul o'tkazmalarini taqdim etishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, Xitoy O'zbekiston bilan do'stlikni mustahkamlab, strategik hamkorlik shartnomasini imzoladi. Ishonchimiz komilki, ular ham, barcha voqea-xodisalarni ko'rib, anglab turgan va to'g'ri xulosa chiqarayotgan biz ham ezgu maqsadga erishamiz. Axir, besh ming yillik tarixga ega, shunday boy tajriba to'plagan, zahmatkash do'stlar davrasidamiz-ku. "Hovli olma, ko'shni ol", degan naqlga amal qilayotgan Yangi O'zbekiston xalqining bu qo'shnichilikdan umidi katta, ko'ngli esa to'q.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Kambag'allikni qisqartirishga bag'ishlangan II xalqaro forum ishtirokchilariga yo'llagan murojaati. 2023 yil 18 may. Internet manba. www.president.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev raisligida o'tgan kambag'allikni qisqartirish, aholi bandligini ta'minlash va kichik biznesni





qo'llab-quvvatlash mavzusidagi videoselektor yig'ilishi ma'lumotlari. 2023 yil 25 yanvar. Internet manba. www.gazeta.uz.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi "“O'zbekiston – 2030” strategiyasi” PF-158-son Farmoni

4. https://fergana.uz/uploads/01/-60_28.01.2022.pdf

5. <https://xs.uz/uzkr/post/2023-jilda-5-million-nafar-aholi-bandligi-taminlanishi-kutilmoqda>

6. Amartya Sen. (1983) Poverty and Famines: An Essay on Entitlement and Deprivation.

7. Тихонова Н.Е., Горшкова М.К. (2014) Бедность и бедные в современной России. - Весь Мир, - 304 с.

8. Jeffrey Sachs im Gespräch (28 сентября 2022). Дата обращения: 27 февраля 2023.

9. Pardayev M.Q., Pardayev O.M. (2020) Kambag'allikni baholash va uni kamaytirish yo'llari. Ilmiy-uslubiy tavsiya. Samarqand: SamISI. – 68 bet.

10. Xasanov R., Usmonov B. O'zbekistonda kambag'allik va uni qisqartirish yo'llari. 06.03.2020. <http://review.uz>.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi (stat.uz) ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

12. <https://kun.uz/n%D0%B5ws/2020/03/03/jahon-banki-kambagallik-darajasini-qanday-hisoblaydi>

13. Poorest Countries in the World 2024. <https://worldpopulationreview.com/country-rankings/poorest-countries-in-the-world>


14. <http://www.un.org/ru/d%D0%B5v%D0%B5lop%D0%B5nt/d%D0%B5vag%D0%B5nda/pdf>

15. Алимов, Б. (2016). ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ДАВЛАТ ҲОКИМИЯТИ ТИЗИМИДА ПРЕЗИДЕНТ ВА БОШ ВАЗИР МУНОСАБАТЛАРИНИНГ КОНСТИТУЦИЯВИЙ-ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ.

16. Алимов, Б. Б., & Валиева, Н. Х. (2024). ТАЪЛИМ СТРАТЕГИЯСИНИНГ САМАРАЛИ ТУРЛАРИ. *Gospodarka i Innowacje*, 46, 386-398.

17. Алимов, Б. Б. (2024). КОРПОРАТИВ БОШҚАРУВ РЕЙТИНГИНИ ХОРИЖ ТАЖРИБАЛАРИ АСОСИДА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. *Gospodarka i Innowacje*, 53, 125-138.

18. Shokhazamiy, S. S., & Alimov, B. B. (2019). THE METHOD OF COMPLEX RETRO-FORECAST ANALYSIS OF THE BALANCE SHEET OF INSURANCE





COMPANIES FROM THE PERSPECTIVE OF THE INTERESTS OF THEIR INVESTORS. Economics and Innovative Technologies, 2019(4), 6.

19. Alimov, B. (2019). THE METHOD OF COMPLEX ESTIMATION OF THE ACCOUNTING BALANCE OF THE INSURANCE COMPANIES FROM THE PERSPECTIVE OF THEIR MANAGEMENT. International Finance and Accounting, 2019(2), 4.

